
MA'NAVIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH – ZAMON TALABI



Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tuman bo'linmasi hamda tuman IIB bilan hamkorlikda mavjud muammolarni hal etish, ma'naviy - ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ko'lami va miqiyosini yanada kengaytirish, mamalakat aholisi, avvalo yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik xissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-sonli qaror ijrosi yuzasidan davra suhbati o'tkazildi hamda tushuntirish ishlari olib borildi.

Davra suhbatida so'z olgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tuman bo'linmasi rahbari N.Otabekov va tuman IIB Ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik M.Sharopovlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o'rtasida xizmat intizomi va qonuniylikni mustahkamlash, Vatanga muhabbat, xizmat qasamyodi va kasbiga sadoqat, fidoyilik, halollik, poklik singari fazilatlar har bir xodimning e'tiqodiga aylanishi lozimligini aytib o'tishdi

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2021-05-05 21:16:11